

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI
TO'XTANAZAROVA MAHLIYONING
O'ZBEK TILI FANIDAN
“O'ZBEK XALQINING ASL
FARZANDLARI” MAVZUSIDAGI

KURS ISHI

NAMANGAN-2017

O`zbek xalqining asl farzandlari

Reja:

I.Kirish. Ajdodlar ilmini meros qilgan avlod.

II.Asosiy qism.

1.O`zbekiston zaminida ulg`aygan buyuk siymolar.

2.Xalqimiz nomini jahonga tanitgan ilg`or yoshlar.

3.O`zbek sportchilarining yuksak marralarni zabt etishi.

III. Xulosa. Ertangi kun bizniki –marra bizniki.

I.Kirish. Ajdodlar ilmini meros qilgan avlod.

Bugun bizning jonajon yurtimiz — O'zbekiston chorak asrlik mustaqil hayoti davomida o'z taraqqiyot yo'lini belgillab olgan, o'z tajribasi bilan butun jahonga namuna bo'la oladigan mamlakatga aylandi. Mustaqillikni qo'lga kiritgan paytimizda bunday natijani bizdan hech kim kutmagandi. Hozir esa iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida 5-o'rinni, "Butunjahon baxt indeksi"ning ("World Happiness Indeks") yangi reytingida 158 mamlakat orasida 44-pog'onani egallab turibmiz. Poytaxtimiz — azim Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140-ta shahar orasida 58-o'rinni egallagani ham yuragimizda faxr-iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Shu kunga yetguncha xalqimiz anchagina tahlikali va mashaqqatli davrni boshdan o'tkazdi. Lekin 1-prezidentimiz I.A.Karimovning oqilona siyosat yuritganliklari, diplomatik aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yganliklari hamda rivojlanishning "o'zbek modeli"ni yurtimiz hayotiga tadbiq etganliklari sababli o'z maqsadimizdan og'ishmay bugungi yutuqlarni qo'lga kiritdik. Prezident Islom Karimov 2001-yil 24yanvarda Toshkentda bo'lib o'tgan yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning ehinakam suyanehi bo'la oladigan yangi lashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. 2001-yil 25- aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti - O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish (14 yoshdan 28 yoshgacha), sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigitqizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchung zarur shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanehi va suyanehisi boiishdan iboratdir.

Xalqimizda "Bo'ladigan bola boshdan ma'lum" degan purma'no maqol bor. Shu maqolning o'zidanoq xalqimiz ishning boshidanoq uning yakunini ko'ra bilishi haqida xulosa qila olamiz. Biz ana shunday — yetti o'lchab bir kesadigan,

kunning botishidan ertangi tong qanday otishini aytib bera oladigan xalqmiz. Bunday xalqning arzandlari esa buguni ertangi kunining asosi, poydevori ekanligini butun vujudi bilan his qiladi. Ularning qon tomirlarida vatanga muhabbat tuyg`usi jo`sh urib oqadi, yuraklarida esa Vatanning buyuk kelajagiga bo`lgan komil ishonch bor. Bu ishonch bugun har bir yurtdoshimiz qalbidan mustahkam orin olgan. Bu ishonch yuksak marralarni qo`lga kiritishimizda madadkor bo`ladi. Bu ishonch bizga yaratilayotgan shart-sharoitlarning mevasidir.

II.Asosiy qism.

1.O`zbekiston zaminida ulg`aygan buyuk siymolar.

Bizning uzoq o`tmishga borib taqaladigan tariximiz shundan dalolat beradiki, biz ajdodlarimizning buyuk ilmiy salohiyatini o`zimizga meros qilib olganmiz. Bizning zaminda xalqimizning asl farzanlari bo`lgan buyuk daholar, ensiklopedist olimlar yetishib chiqqan. O`rta asr arab tilida ijod namunalarini yaratgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Al Farg`oniy, hadis ilmi dahosi Imom al Buxoriy, uning izdoshlaridan Imom at-Termiziy, tabiblik ilmi dahosi Abu Ali ibn Sino kabilar shular jumlasidandir. Temuriylar hukmronligi davrida ham o`zbek xalqining buyuk farzandlari o`zlarining yuksak ilmiy salohiyati bilan butun jahonga o`zbek nomini tanitdi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotda birinchilardan bo`lib “Xamsa” yaratdi, turkiy(o`zbek) tilining yuksak maqomini tiklab berdi, unda ham asar yozish mumkinligini isbotladi. Alisher Navoiy o`z asar namunalari bilan turkiy (o`zbek) tilini tikanlardan tozaladi. Amir Temur, Z.M.Bobur, Ali Qushchi, K.Behzod, Mirzo Ulug`bek kabi buyuk bobolarimiz jahon ilm-fan taraqqiyotiga o`zlarining munosib hissalarini qo`shganlar. Amir Temur markazlashgan mamlakatga asos solib, o`z mamlakatining poytaxti bo`lgan Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarini yaratib o`lkamizning tarixi, ob-havosi, tabiati, go`zal maskanlari, ulug` shaharlari, buyuk siymolari haqida qimmatli ma`lumotlarni berdi. Bobur, shuningdek, “Muxtasar”, “Harb ishi”, “Musiqqa ilmi”, “Mubayyin ul-zakot”, “Hind devoni”, “Kobul devoni” kabi asarlarni o`z hissasini yaratib, o`zbek adabiyotining rivojiga qo`shdi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari 1494-1529-yil voqealarni qamrab oladi. Bu asar dastlab “Vaqoye” deb atalgan. Asarning boshqa nomlari: “TUZUKI BOBURIY”, “BOBURIYA”, “VOQEANOMA”, “VOQEOTI BOBURIY”. Bu asardagi voqealar Movarounnahr, Xuroson, Afg`oniston, Hindistonda ro`y beradi. Uning avlodlari Hindistonda 332 yil hukmronlik qilib, u yerda ko`plab islohotlarni amalga oshirdi, dunyoda nomi mashhur bo`lgan “Tojmahal” va boshqa

inshootlarni qurishdi. Mirzo Ulug`bek “Zijji jadidi ko`ragoniy” nomli asari bilan osmon ilmini o`rganishda yangi pog`onani zabt etdi. Bizning zamindan shunday ulug` insonlar yetishib chiqqanki ularnig aqlu-zakovati butun olamni lol qoldirgan. O`zbekiston zaminida o`sib ulg`aygan buyuk siymolari xalqimizning asl farzandlari edi. Milatimiz ilmiy salohiyati ravnaqi uchun jonini tikkan marifatparvarlar: Mahmudxo`ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Muhammadsharif So`fizoda, xalqimizni ziyoli qilaman deb qatag`on qurboniga aylangan Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Cho`lpon, zamonaviy o`zbek adabiyotining buyuk namoyandalari Abdulla Qahhor, G`afur G`ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O`tkir Hoshimov kabi adabiyot darg`alari xalqimizning asl farzandlari edi. Biz ana shunday buyuk ajdodlar davomchisi ekanmiz, ularga munosib bo`lishimiz, ularning xalqimiz taraqqiyoti uchun boshlagan ishlarining davomchisi bo`lishimiz kerak. O`zbekiston Respublikasining 1-prezidenti I.A.Karimov ham xalqimizning asl farzandi, kelajak avlodning buyuk otasi edi. Ularning “Kelajak –yoshlar qo`lida”, degan purmano fikrlarini hech qachon unutmasligimiz kerak.



2.Xalqimiz nomini jahonga tanitgan ilg`or yoshlar.

O`zbekiston — keng imkoniyatlar mamlakati. Bugun biz — yoshlarning bilim olishimiz, turli sohalarda yutuqlarni qo`lga kiritishimiz uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Hatto yurtimizning chekka huddlarida ham barcha qulayliklarni o`zida mujassamlashtirgan, jahon talablariga to`la javob bera oladigan zamonaviy ta`lim muassasalari faoliyat ko`rsatmoqda. Bugun yevropa standartlari asosida qurilgan

ko`rkam binolar qishloqlarimizda ham qad ko`tarmoqda. Shu imkoniyatlar samarasi o`laroq bugun yoshlarimiz yetuk, aql-zakovat sohibi bo`lib yetishmoqdalar. San`at, sport,ilm-fan, adabiyot va boshqa ko`pgina sohalarda tengdoshlarimiz nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham yuqori marralarni zabt etishmoqda.

Bu imkoniyatlar donolik bilan yuritilgan siyosat samarasidir. Bu siyosatdan ko`zlangan maqsad, eng avvalo, inson hayoti va uning manfa`atlarini himoya qilishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita inson va uning taqdirini ko`zlangan holda amalga oshirilmoqda. Zero biz “islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak” degan yuksak maqasadni o`z oldimizga qo`yganmiz. Bundan salkam o`n yil oldin 1-prezidentimiz I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari” nomli asarlarida shunga hamohang tarzda quyidagi fikrlarni aytib o`tganlar : “Biz uchun mustaqillik —o`z erkinligimizni anglashgina emas,balki,avvalo o`z hayotimizni o`z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko`zlangan holda tashkil etish,o`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurish huququdir.” Demak bu imkoniyatlarni bizga mustaqillik berdi.Kelajagimizni o`z qo`limiz bilan qurish huquqiga ega bo`lganimiz uchun bu imkoniyatlar sohibiga aylandik desak , mubolag`a qilmagan bo`lamiz.

Bugun mamlakatimiz nomini dunyoga tanitayotgan shunday farzandlari borki, ularning ta`rif-u tavsiflari dostonlarga ham sig`maydi. O`zbekistonnig yoshlari hozir butun olamni lol qoldirib barcha sohada dunyo yoshlarini ortda qoldirmoqda. San`at, ilm-fan, madaniyat,sport sohalarida qo`lga kiritayotgan yutuqlarni butun jahon e`tirof etmoqda.Masalan, Parij sahnasida 5 yoshli o`zbek bolasining mahorati butun tamoshabinlarning e`tiborini jalb etdi. Xalqimiz farzandlari butunjahon “Mendalaev olimpiadasi”, jahon miqyosida o`tkiziladigan fan olimpiadalari, san`at sohasida o`tkaziladigan turli nufuzli tanlov va musobaqalar, butunjanon ko`rgazmalarida qatnashib, yuqori o`rinlarni egallamoqda. O`zbekiston

bayrog`ini jahon sahnalarida baland ko'tarib chiqishmoqda. Ana shu ilg`or yoshlar xalqimizning asl farzandlari, ota-bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladi.

O'zbekiston aholisi tez o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. 1991-yilda O'zbekiston aholisining soni 20,7 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, mustaqillikdan keyingi yillar davomida aholi soni o'sdi va 2009-yilda 28 mln.dan oshdi. O'zbekistonda 120 dan ortiq millat va elatlarning vakillari yashaydi. Aholi sonida o'zbeklarning salmog'i yildan yilga o'sib bormoqda. Aholi tarkibida o'zbeklarning salmog'i 1989-yilda 71,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 80-foizga yetdi. O'zbekistonning haqiqiy boyligi uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo'st xalqidir. O'zbekistonning haqiqiy boyligi uning mehnatsevar, saxiy va mehmondo'st xalqidir. O'zbekistonni yoshlar mamlakati deyish mumkin. negaki 30 yoshga cha bo'lgan yoshlar Respublika umumiy aholisining 64 foizini tashkil etadi. Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi «O'zbekiston dorbozlari» guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo'lib, 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo'lgan yosh sirk artistlarining xalqaro leslivalida qatnashib «Plastik etud» (besuyak o'yini) jaurida lestivalning eng oliy mukofoti - oltin medalni qoiga kiritdi. 1998-yilda Toshkent sirkida Karima Zaripevva rahbarligida istedadli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar stmliyasi ochildi. Studiya bolalarga sirk sirlarini o'rgatadi.

O'zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida bo'lib o'tgan xalqaro festivalda, 1999-yilda Saratov shahrida bo'lib o'tgan Butimrossiya sirk festivalida, 2000-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo'lib o'tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvaixla Belgiyaning Lyej shahrida bo'lib o'tgan Yevropa sirkklarining 10-lbsiivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida Oybek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaiidan o'rin egalladi.

3.O`zbek sportchilarining yuksak marralarni zabt etishi.

O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov “Mamlakat nomini sportchalik hech narsa olamga tanita olmaydi”, deb ta’kidlar edilar. Bu naqadar dono fikr ekanligini bugun aniq his qilmoqdamiz. O`zbekiston yoshlari sport sohasida yuksak marralarni zabt etdi, hozir ham egallamoqda. Mustaqillik yillarida sport O`zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. Sport aholini, xususan yoshlarni jismoniy va axloqiy tarbiyalashning, xalqlar o`rtasida do`stlikni mustahkamlash va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir.

1992-yil 5- fevralda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida»gi Qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari - sport-sog`lomlashtirish klublari, bolalar, o`smirlar sport maktablari, olimpiya o`rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o`yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta`mirlandi. Ularda 7 mln kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanish imkoniyatiga ega bo`ldi.

1992-yil yanvarda O`zbekiston Milliy olimpiya qo`mitasi tuzildi va 1993-yil sentabrda xalqaro olimpiya qo`mitasining 101-sessiyasida rasmiy e`tirof etildi. 1996-yil 14-avgustda Toshkentda olimpiya muzeyi ochildi. 1992-yili Barselonada o`tkazilgan olimpiya o`yinlarida O`zbekiston sportchilari 3 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarini qo`lga kiritdilar.

Sportning boks turi jadal o`sdi. Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullayev kabi O`zbekistonlik bokschilarning nomi jahonga mashhurdir. 1999-yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o`tkazilgan X Jahon chempionatida O`zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o`rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinehi o`rinni egalladi. Bokschilarimiz M.Abdullayev va o`.Haydarovlar oltin, T. Turg`unov kumush medali sohibi boishdi. 2000-yili Avstraliyaning Sidney shahrida o`tkazilgan 27-yozgi Olimpiada

o'yinlarida bokschilar M. Abdullayev oltin, Sergey Mixaylov va Rustam Saidovlar bronza medallarini, kurashchi Artur Taymazov kumush medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston bokschilari shuhratini olamga namoyon qildilar.

O'zbek bokschisi Ruslan Chagayev 2007-yil 14- aprel kuni Germaniyaning Shtutgart shahrida professional boksning WBA yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni N. Valuyev bilan bo'lgan bellashuvda g'alaba qozonib, o'ta og'ir vazn toifasi bo'yicha jahon chempioni unvonini qo'lga kiritdi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmuasi barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002-yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik sportehi Iroda To'laganova uimblon turnirida g'olib ehiqib, kumush kubokning kiehraytirilgan nusxasini qo'lga kirildi.

1998-yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland «Everest» eho'qqisiga ehiqib, O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar.

1994-yilda Xirosimada o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida O'zbekistonlik yengil atletikaehilar, merganlar, kurashehilar, dzyu-doehilar, boksehilar, futbolehilar jaini 40 ta, jumladan, 10 ta oltin medal sohibi bo'ldilar. 1999-yilda Germaniyada yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan karale bo'yieha xalqaro turnirda 200 mamlakatdan 900 nafar sportehilar qatnashdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston komandasi faxrli uehinehi o'rinni egalladi. 2002-yil 29-sentabr-14-oktabr kunlari Janubiy Koreyaning Pusan shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida O'zbekistonlik sportehilar sportning 24 turi bo'yieha muvaffaqiyat bilan qatnashib, 15 ta oltin, 12 ta kumush, 24 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, qirqdan ortiq mamlakatlar orasida faxrli beshinehi o'rinni egalladilar.

Mustaqillik sharofati bilan milliy o'zbek kurashi tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yieha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kura-shimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab ehiqildi va

xalqaro ekspertlar tomonidan G'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999-yil may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlardan kelgan sportehilar ishtirokida kurash bo'yieha birinehi jahon ehempionati bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonlik kurashehilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Tosh-temir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. 2000- 2002-yillarda Bedford shahrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvehi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. 2002-yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi aVoligiga qabul qilindi. o'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e'tirof etildi.

2004-yilda Liviya poytaxti Tripoli shahrida bo'lib o'tgan shaxmat bo'yieha jahon ehempionatida 56 mamlakatdan 128 nafar shaxmatehi qatnashdi. Ular orasida hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov ham bor edi. Rustam Qosimjonov bareha daVogarlar ustidan g'alaba qozonib, jahon ehempioni degan yuksak unvonni qoiga kiritdi. Bu g'alaba butun xalqimizga eheksiz quvoneh va g'urur-iftixor bag'ishladi.

O'zbekiston sportehilari 1991-2005-yillarda olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, jahon va Osiyo ehempionatlari, jahon kubogi va nufuzli xalqaro musobaqalarda qatnashib, 5457 ta oltin, kumush va bronza medallarini qoiga kiritdilar.

O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami Ravshan Ermatov o'zbek futbolining shuhratini jahonga tanitish, xalqaro maydonda uning nufuzini yuksaltirishda ibrat va namuna ko'rsatmoqda. FIFA referisi Ravshan Ermatov O'zbekiston milliy futbol hakamlari maktabini rivojlantirish ishiga qo'shgan munosib hissasi ueliun «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

O'zbekiston yoshlarining Rio-de-Janeyrodagi olimpiada o'yinlarida to'rtta oltin, ikkita kumush, ettita bronza medalini qo'lga kiritgani ham buning yorqin

isboti bo'ldi. 2016-yil avgust oyining o'n besh kuni mobaynida dunyodagi barcha sport muxlislarininggina emas, balki butun jamoatchilikning diqqat-e'tibori Janubiy afrikadagi Braziliyaning Rio-de-Janeyrosiga qaratildi. Biz uchun juda olis qit'adagi bu shaharda har to'rt yilda bir o'tkaziladigan Yozgi Olimpiada o'yinlari bo'ldi. Bu olimpiadada oltin medal sovrindori bo'lib qaytgan boks bo'yicha olimpiada chempioni Hasanboy Do'smatov, og'ir atletika bo'yicha olimpiada chempioni va rekordchi Ruslan Nuriddinov kabilar xalqimizning asl farzandlaridir.

Jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yuqori malakali sportchilarni tarbiyalashda mamlakatda joriy etilgan uch pog'onali sport o'yinlari – "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada"ning ham o'ziga xos o'rnini bor.

III. Xulosa. Ertangi kun bizniki –marra bizniki.

O'zbekiston — keng imkoniyatlar mamlakati. Bugun biz — yoshlarning bilim olishimiz, turli sohalarda yutuqlarni qo'lga kiritishimiz uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Hatto yurtimizning chekka huddlarida ham barcha qulayliklarni o'zida mujassamlashtirgan, jahon talablariga to'la javob bera oladigan zamonaviy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Bugun yevropa standartlari asosida qurilgan ko'rkam binolar qishloqlarimizda ham qad ko'tarmoqda. Shu imkoniyatlar samarasi o'laroq bugun yoshlarimiz yetuk, aql-zakovat sohibi bo'lib yetishmoqdalar. San'at, sport, ilm-fan, adabiyot va boshqa ko'pgina sohalarda tengdoshlarimiz nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham yuqori marralarni zabt etishmoqda.

Bu imkoniyatlar donolik bilan yuritilgan siyosat samarasidir. Bu siyosatdan ko'zlangan maqsad, eng avvalo, inson hayoti va uning manfa'atlarini himoya qilishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bevosita inson va uning taqdirini ko'zlangan holda amalga oshirilmoqda. Zero biz “islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak” degan yuksak maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bundan salkam o'n yil oldin prezidentimiz I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va kafolatlari” nomli asarlarida shunga hamohang tarzda quyidagi fikrlarni hamohang tarzda quyidagi fikrlarni aytib o'tganlar : “Biz uchun mustaqillik — o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki, avvalo o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlangan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huququidir.” Demak bu imkoniyatlarni bizga mustaqillik berdi. Kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqiga ega bo'lganimiz uchun bu imkoniyatlar sohibiga aylandik desak , mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Biz bu imkoniyatlar kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidan mahrum bo'lmaslik uchun, avvalo, o'zligimizni unutmasligimiz, o'z taraqqiyot yo'limizdan ogishmasdan olg'a yurishimiz lozim. Kelajak hayotimiz ham ana

shunga bogʻliq. Shuningdek yuksak marralarga erishish uchun zamonaviy ilm-fan vakasb-hunarlarini puxta egallashimiz, oʻqib oʻrganish va izlanishdan toʻxtamasligimiz bugungi davr talabidir. Zero, prezidentimiz yoshlarni doimo olgʻa intilishga ragʻbatlantiradilar: “Yana bir bor taʼkidlayman, doimo oʻrganish, izlanish, yangilikka intilib yashash kerak. Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan boʻlsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya boʻladimi, Yevropa davlatlari boʻladimi – bularning barchasidan oʻrganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy cheklashlar yoʻq. Biz uchun yagona mafkura – bu Oʻzbekistonning taraqqiyoti, Oʻzbekistonning ravnaqi, Oʻzbekistonning dunyoda hech kimdan kam boʻlmasligidir.”(I.A.Karimov.“Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish eng oily saodatdir”).

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga koʻmaklashish, qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yoʻlga qoʻyish Milliy dasturda belgilangan muhim vazifalardan biridir. 1997-yilda tashkil etilgan «Umid» jamgʻarmasi yoʻllanmasi bilan 1997-2001 -yillarda 785 nafar yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy oʻquv yurtlariga oʻqish uchun joʻnatildi. Ulardan 519 nafari oʻqishlarini bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruhi yoʻllanmasi bilan vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamoqdalar. Toshkentda 2002-yil iyulda Xalqaro Vestminster universiteti ochildi, 2006-yilda Moskva davlat universitetining filiali, 2007-yilda Moskva neft-gaz universitetining filiali, 2008-yilda Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2009-yilda Turin politexnika universiteti tashkil etildi.

Prezidentimiz yoshlar tarbiyasiga alohida eʼtibor berib “yangi avlodni tarbiyalash” “xalqni tarbiyalash” ekanligini asarlarida alohida taʼkidlaganlar. Oʻz maʼruzalarida “Farzandlarimiz bizdan koʻra kuchli, bilimli, don ova, albatta, baxtli boʻlishlari shart”, deb doimo baralla ovoz bilan aytadilar. Barcha sharoitlar kelajak avlod uchun muhayyo. Hatto yillarga nom berish zamirida ham kelajak avlodga boʻlgan gʻamxoʻrlik sezilib turadi. “Sogʻlom avlod yili”, “Onalar va bolalar yili”,

“Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Sog`lom bola yili” davlat dasturlarining mazmun mohiyati ham bevosita kelajak avlodni nazarda tutib ishlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ислом Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч”. – Т.: “Маънавият”, 2008.
2. I.A.Karimov. “Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish eng oily saodatdir” – Toshkent: “O’zbekiston”, 2015.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2007.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001.
5. www.Google.uz.
6. www.ziyo.net.uz.